

FRAZEOGRAFIYA SOHASI - FRAZELOGIYANING TAYANCH QISMI SIFATIDA

<https://doi.org/10.2689/zenodo.187964851>

Rahimova Mahzuna Husan qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti,

Xorijiy filologiya fakulteti,

Nemis filologiyasi kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Email: mahzuna95@yandex.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologiya sohasida olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar, ularning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rnini va ahamiyati hamda frazeologik lug'atlarning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Xususan, frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini tadqiq etishda frazeografik manbalarning tutgan o'rnini tahlil qilinadi.

Maqolada frazeografiya nisbatan yosh soha bo'lishiga qaramay, bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan faol va tizimli ravishda o'rganilayotgan muhim tarmoq ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, frazeologik lug'atlarni tuzish tamoyillari, ularning turlari hamda frazeologik birliklarni tasniflash va izohlashdagi muammolar yoritiladi.

Tadqiqot natijalari frazeografiyaning frazeologiya fanidagi tayanch o'rnini va uning tilni o'rganish, o'qitish hamda tarjima jarayonlaridagi ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

soha, tilshunoslik, frazema, lug'at, frazeologik lug'at, frazeologiya, frazeologik lug'atlar, frazeografiya, frazeologik birlik.

PHRASEOGRAPHY AS A CORE COMPONENT OF PHRASEOLOGY

Abstract

This article examines a number of scholarly studies conducted in the field of phraseology, their role and significance in modern linguistics, as well as the theoretical and practical aspects of phraseological dictionaries. In particular, the paper analyzes the importance of phraseographic sources in the study of the semantic, structural, and functional features of phraseological units.

The article emphasizes that, although phraseography is a relatively young field, it is currently an important branch that is being actively and systematically

explored by researchers. In addition, the principles of compiling phraseological dictionaries, their types, as well as the problems related to the classification and interpretation of phraseological units are discussed.

The results of the study substantiate the core role of phraseography within phraseological studies and highlight its scientific and practical significance in language learning, teaching, and translation processes.

Keywords

field, linguistics, phraseme, dictionary, phraseological dictionary, phraseology, phraseological dictionaries, phraseography, phraseological unit.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil va xalqaro miqyosda tan olingan yo'nalishiga aylanishi asosan XX asrning 70-80-yillarida sodir bo'ldi. Bu davrda turli mamlakatlarda frazeologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar ko'payib, bir qator muhim asarlar nashr etildi. Masalan, Adam Makkai (1972), Harald Thun (1978), Klaus Diyeter Pilz (1978) va boshqalar tomonidan yozilgan nazariy asarlar frazeologiyani rivojiga katta hissa qo'shdi.[1,145]

1980-yillardan boshlab frazeologiya bo'yicha tadqiqotlar keskin ortdi, xalqaro miqyosda konferensiyalar o'tkazila boshlandi. 1986-yilda Finlandiyada frazeologiya sohasida bo'lib o'tgan simpozium natijasida Europhras yig'ilishlariga asos solindi, bu esa nemis tilshunosligi tashabbusi va yetakchiligidagi Yevropa miqyosida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlarini birlashtirdi.

1999-yilda Yevropa frazeologiya jamiyati tashkil etilib, xalqaro hamkorlik yanada kuchaydi. So'nggi yillarda Europhras yig'ilishlariga ko'plab slavyan, ingliz va roman tillari vakillari ham qo'shildi.

Frazeologiya sohasidagi tezkor ilmiy rivojlanish natijasida zamonaviy qo'llanmalarga ehtiyoj paydo bo'ldi. 2007-yildan boshlab Harald Burger, Dmitriy Dobrovolskiy, Peter Kun, Neal R. Norrick kabi nemis va ingliz tilshunoslari ishtirokida xalqaro miqyosda yirik qo'llanmalar nashr etildi. Masalan, "Frazeologiya. Zamonaviy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro qo'llanma" (Phraseologie. Ein internationales Handbuch der zeitgenossischen Forschung)si 20 bob va 95 maqoladan iborat bo'lib, ko'pchilik mualliflar nemis tilshunoslari hisoblanadi. Qo'llanma frazeologiyani obekti, terminologiyasi, strukturasi, morfologik xususiyatlari, sintaktik xususiyati, so'z yasash bilan aloqalari kabi masalalarni qamrab oladi. Sintaksisda frazemalar valentlik nazariyasi, generativ va konstruktion grammatika asosida tavsiflanadi.[1,232]

Shunday qilib, frazeologiya mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanishi, xalqaro hamkorlikdagi kengayishi va zamonaviy qo'llanmalar orqali yanada tizimlashtirilishi sohaning global rivojida muhim bosqich bo'ldi.

Frazeologiya sohasida frazemalarning semantikasi, ularning motivatsiyasi, paradigmatic tuzilmalari va meaning-text nazariyasining leksik funksiyalari muhim o'ringa ega. Tadqiqotlarda frazemalarning pragmatik jihatlari (gapiruv harakati, muloyimlik nazariyasi, suhbat tahlili), stilistika (matn uslubini shakllantirish) hamda retorika (argumentatsiyada frazemalarning roli) ko'rib chiqiladi. Shuningdek, frazemalarning semiotik xususiyatlari, madaniy kontekstdagi ahamiyati va diskursdagi roli, og'zaki va yozma nutq hamda yoshlar nutqida qo'llanishi tadqiq etiladi.

Frazeologiyaning yoshlar o'rganishdagi roli, ona tili va chet tillarida o'rgatish metodlarining ahamiyati katta. Lug'atlardagi frazeologizmlarni taqdim etish, ikki tillik va yagona tillik frazeografiya, shuningdek, frazeografik an'analar tadqiq qilinadi.

Umuman olganda, frazemalarning paydo bo'lishi, xususiyati va yo'qolib borishi jarayonlari turli tillarda tadqiq qilinib, tilshunoslikda muhim tadqiqot obekti sifatida e'tirof etiladi. Frazeologiyaning tor doirasi idiomalar va kollokatsiyalardan iborat bo'lib, maqollar esa o'ziga xos alohida guruhini tashkil etadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda frazeografiya juda dolzarb va muhim soha sifatida qaraladi, tanqidiy fikrlar uning ilmiy ahamiyatini kamaytirmaydi.

Nemis va o'zbek tillarining qiyosiy o'rganilishi natijasida nemis hamda o'zbek tillarini o'zida jamlagan bir qancha lug'atlar, jumladan frazeologik lug'atlar ham vujudga kela boshladi. Ulardan biri M.I.Umarxo'jayev va Q.N.Nazarovlarning "Nemischa-ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'ati" dir.[2,4] Mazkur lug'atlar sirasiga so'nggi yillarda yaratilgan professor Sh.S.Imyaminovning "Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'atini"[3,4] kiritib o'tish lozim. Unda nemis va o'zbek tillarida ko'p miqdorda qo'llanuvchi 1500ga yaqin maqol hamda matallar o'rin olgan. Ushbu lug'atda avval nemis tilidagi maqol yoki matal berilib, so'ngra uning o'zbek tilidagi muqobil tarjimai ifoda etilgan.

Frazeografiya sohasida nemis va o'zbek tillarida hamda boshqa tillarda bir qancha frazeologik lug'atlar yaratilgan bo'lib, ularning ahamiyati hozirgi kunda frazeografiya sohasi uchun juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Quyida frazeologik lug'atlardagi bosh so'z va lug'at maqolachasining ifodalanishi, ularning lug'atlarda berilishini tahlil qildik. Ana shunday frazeologik lug'atlardan biri V.Friedrixning "Deutsche Idiomatik" [4,10] lug'atidir.

Ma'lumki, idiomalar ham frazeologizm hisoblanadi va ular nemis tilshunosligida ahamiyatga ega. 1976-yilda Max Hueber nashriyoti tomonidan chop etilgan mazkur lug'at kirish, turg'un birikmalarning tilda berilishi hamda qo'llanilish jihatlariga to'xtalib o'tilgan qismlardan iborat. Lug'atda idiomalar

alifbo tartibida berilgan hamda uning maqolachasida mazkur idiomaning ma'nosi, o'sha idioma qatnashgan jumla ham ko'rsatilgan.

Nemis tilida mavjud frazeologik birikmalarni yig'ish, ularni lug'at holida taqdim etishga rus tilshunosligida V.T.Shklyarov, R.Ekkertlar tomonidan 1977-yilda Moskvada nashr ettirilgan „Kurzes russisch-deutsches Wörterbuch“lug'atini keltirish lozim .[5,5]

Xulosa qilib aytganda, har qanday lug'at turini tuzishda tilshunosleksikografadan tilni chuqur bilishi va ayniqsa frazeologik birliklarni tushunishi muhim o'rin tutadi. Bu jarayon murakkab bo'lib, lug'at tuzish orqali til boyligi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Burger H., Dobrovol'skij D., Kühn P. Phraseologie. Ein internationales Handbuch der zeitgenössischen Forschung. - Berlin/New York: Walter de Gruyter, 2007, 1183.

2.Умарходжаев М., Назаров Қ. Немисча – русча -ўзбекча фразеологик луғат. –Тошкент: Ўқитувчи, 1994.

3.Imyaminova Sh.S. Nemischa – o'zbekcha maqol va matallar lug'ati. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.

4.Friedrich W. Moderne deutsche Idiomatik. Systematisches Wörterbuch mit Definitionen und Beispielen. -München: Max Hueber Verlag, 1966.

5.Шкляров В. Краткий русско-немецкий фразеологический словарь. - Москва: Русский язык, 1977.